


III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI HAJMI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi – 17 227 mlrd. so'mni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 16 753 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 396,8 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 77,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiyligi hajmi




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiyligi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar umumiyligi asosida shakllantiriladi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining o‘sish sur’ati, % da



2024-yilning yanvar-iyun oylarida dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda – 103,0 % ni, o‘rmon xo‘jaligi – 102,1 %, baliqchilik xo‘jaligi – 102,7 % ni tashkil qildi.

Andijon viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining taqsimlanishi, % da




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmining 97,2 foizi – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,3 foizi – o‘rmon xo‘jaligi 0,5 foizi – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keldi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiyligi hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi, % da




Dastlabki ma'lumotlariiga ko'ra 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini Andijon viloyatining hududlari kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulushi Asaka (10,6%), Jalaquduq (9,7%), Shahrixon (8,4 %) va Qo'rg'ontepaga (8,1%) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha ulushi kam hududlar Xonobod shahri (0,6 %), Andijon shahri (2,8%), Bo'ston (3,9%) va Ulug'nor (4,1%) tumanini keltirib o'tish mumkin.



Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024-yilning yanvar–iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka (1 831,3 mlrd. so‘m) va Jalaquduq (1 668,5 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hudud Xonobod shahar (98,0 mlrd. so‘m) va Andijon shahri (478,8 mlrd. so‘m) tumanini keltirib o‘tish mumkin.

Andijon viloyati ko‘rsatkichi (103,0 %)dan yuqori o‘sish sur’ati Baliqchi (110,4 %) va aksincha o‘sish sur’ati past Paxtaobod (100,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari, % da

Viloyat ko'rsatkichidan (103,0 %) yuqori o'sish sur'atlari Baliqchi (110,4 %), Xonobod shahar (107,7 %), Andijon shahri (105,4 %), Buloqboshi (104,4 %), Oltinko'l (103,9 %), Xo'jaobod (103,7 %) va Marhamat (103,1 %) tumanlarida kuzatildi.


Asaka tumanida (100,5 %), Paxtaobod (100,5%), Ulug'nor (100,9 %), Qo'rg'ontepada (102,0 %) va Izboskan (102,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Baliqchi	 110,4
Xonobod sh.	 107,7
Andijon sh.	 105,4
Buloqboshi	 104,4
Oltinko'l	 103,9
Xo'jaobod	 103,7
Marhamat	 103,1
Andijon	 103,0
Bo'ston	 102,9
Shahrihon	 102,4
Jalaquduq	 102,3
Izboskan	 102,2
Qo'rg'ontepada	 102,0
Ulug'nor	 100,9
Paxtaobod	 100,5
Asaka	 100,5


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 16 607,5 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 9 302,9 mlrd. so'mni (101,6 %), chorvachilik mahsulotlari – 7 304,6 mlrd. so'mni (104,7 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, % da



Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da




Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, % da



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,9 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 27,0 foizi - fermer xo‘jaliklariga, 3,1 foizi - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Marhamat tumanida (47,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Xonobod shahrida (99,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bo‘ston tumanida (6,5 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Xonobod shahrida (0,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Marhamat tumanida (49,9 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xonobod shahrida (0,1 %) qayd etildi.

Aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlarda 5 052,8 ming so‘mni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlardagi tarmoq umumiy hajmini hududning hisobot davridagi o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga hisoblangan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi, (ming so‘m)



Hisobot davrida hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’atini tahlil qilar ekanmiz:

Eng yuqori o‘sish sur’atini qayd etgan hududlarga Baliqchi (108,2 %), Xonobod shahri (106,0 %), Andijon shahri (102,6 %), Oltinko‘l (102,4%), Buloqboshi (102,3 %) tumanlarini keltirib o‘tishi lozim.


Aksincha o‘sish sur’ati past hududlarga Asaka (98,4 %), Paxtaobod (98,4 %), Ulug‘nor (99,8 %), Qo‘rg‘ontepa (100,1 %), Shahrixon (100,1 %) va Izboskan (100,2 %) tumanlarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Dehqonchilik

2024-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 9 302,9 mld. soʻmni yoki 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 56,0 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar

2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 594,9 ming tonna sabzavotlar (2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 102,7 % ga koʻp) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish koʻrsatkichlari xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 82,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelganini koʻrsatmoqda.



Sabzavot yetishtirishninig xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi, % da

- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar boʻyicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming t.




Chorvachilik



2024-yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 7 304,6 mlrd. so‘nni yoki 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,7 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 44,0 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 85,5 ming tonna go‘sht (2023-yilning yanvar-iyunga nisbatan 105,4 % ga ko‘p) yetishtirildi, 372,3 ming tonna sut (103,3 % ga ko‘p) sog‘ib olindi, 303,6 mln. dona tuxum (101,1 % ga ko‘p) yetishtirildi va 4 563,5 tonna baliq (102,6 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 85,5 ming tonna go'sht (2023-yilning yanvar-iyunga nisbatan 105,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 86,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming tonna




Sut

2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 372,3 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 103,3 % ga ko‘p) sog‘ib olindi. Sut sog‘ib olish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut sog‘ib olish umumiy hajmidan 90,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



Sog‘ib olingan sutninig xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Hududlar bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming tonna




Tuxum

2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 303,6 mln. dona tuxum (2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 101,1 % ga ko‘p) olindi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiyoj hajmidan 77,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.


Hajmi, mln. dona



O‘sish sur’ati, % da



Olingan tuxumning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Hududlar bo‘yicha olingan tuxum hajmi, mln. dona




Baliq

2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 4 563,5 tonna (2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 102,6 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqlar umumiy hajmidan 45,6 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.




Ovlangan baliq mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorva mollari, parrandalar bosh soni va o'sish sur'ati




2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,3 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligi sonidan 5,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Otlar umumiyligi sonidan 23,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 75,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 14,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 56,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 28,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 133,8 mingtaga yetdi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 20,7 mingtaga (1,9 %) ko‘paydi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da

- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



Hududlar bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh




Sigirlar


2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiyl bosh soni 386,5 mingtaga yetdi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 5,8 ming taga (1,5 %) ko‘paydi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo‘yicha sigirlarning umumiyl bosh soni, ming bosh




Qo'y va echkilar


2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiyl bosh soni 1 548,4 mingtaga yetdi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 23,2 mingtaga (1,5 %) ko'paydi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 93,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo'yicha qo'y va echkilarning umumiyl bosh soni, ming bosh




Otlar


2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, otlarning umumiyl bosh soni 7 355 taga yetdi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 53 taga (0,7 %) ko‘paygani aniqlandi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 75,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.


Soni, bosh



O’sish sur’ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo‘yicha otlarning umumiyl bosh soni




Parrandalar


2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, parrandalar umumiy bosh soni 10 082,6 mingtaga yetdi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 265,9 mingtaga (2,7 %) ko‘paydi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, parrandalarning 56,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati, % da



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hududlar bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, parrandalarini, asalarilarini, ipak qurtini, baliqlarni saqlash va ko'paytirish, yog'och, yog'och bo'limgan yovvoyi holda o'suvchi o'rmon xo'jaligi mahsulotlarni olish, suv organizmlarini ovlashni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi – dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan soha.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik – qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirish va yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish bir - ikki va ko'p yillik ekinlarni, shuningdek, urug'lik va ko'chat materiallarini o'stirish va yetishtirishni o'z ichiga oladi.

Chorvachilik – qishloq xo'jaligi hayvonlari, parrandalari, asalarilari va ipak qurtini o'stirish va urchitish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi

Baliqchilik xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlanadirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida asosiy va takroriy, bog'larning qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yig'ib olingan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi.

Mollar bosha soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhalidagi asosiy turdag'i chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdag'i qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘sghan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdag'i parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘sghan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektiidir.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.